

*O‘zbekiston Jurnalistika va  
Ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,  
Xalqaro Munosabatlar va ijtimoiy-siyosiy  
fanlar fakulteti, Siyosatshunoslik yo‘nalishi  
2-bosqich talabasi Rustamov Husan To‘lqinjonovich*

**G‘ARBNING INQIROZI – SHARQNING XXI ASR RENESSANSI  
КРИЗИС ЗАПАДА – РЕНЕССАНС ВОСТОКА XXI ВЕКА  
THE CRISIS OF THE WEST - THE RENAISSANCE OF THE XXI  
CENTURY OF THE EAST**

**Annotatsiya:** G‘arb inqirozini bashorat qilgan g‘arblik siyosatchi va sotsiologlar ayni damda uning inqirozini kuzatishmoqda, shuningdek bu jarayon ham madaniy, ham ijtimoiy, ham siyosiy jabhada ro‘y berayotganligi sharqning o‘z madaniyatini saqlab qolgan holda o‘z siyosiy hokimiyatiga moslashtirayotganligi, axloq prinsiplarini “davlat hokimiyati”dan ustun ko‘rishayotganligi ilmiy tadqiqotimizda nazariy o‘rganishlar va amaliy jarayon tahlili asosida tadqiq qilingan.

**Аннотация:** Западные политики и социологи, предсказавшие кризис Запада, в настоящее время наблюдают его кризис, и тот факт, что этот процесс происходит как на культурном, социальном, так и на политическом фронтах, показывает, что Восток адаптируется к своей политической власти, сохраняя при этом свою культуру. Тот факт, что моральные принципы превосходят «государственную власть», был исследован в нашем исследовании на основе теоретических исследований и анализа практических процессов.

**Abstract:** Western politicians and sociologists who predicted the crisis of the West are currently observing its crisis, and the fact that this process is taking place on both the cultural, social and political fronts shows that the East is adapting to its political power while preserving its culture, the fact that moral principles are superior to “state power” was investigated in our research based on theoretical studies and practical process analysis.

**Ka'lit so'zlar:** inqiroz, g'arb tushkunlik davri, sharq renessansi, siyosiy kuch, koalitsiyalar, qarama-qarshiliklar, nizolar va muommolar.

**Ключевые слова:** кризис, западная депрессия, восточный ренессанс, политическая власть, коалиции, противоречия, конфликты и проблемы.

**Key words:** crisis, western depression, eastern renaissance, political power, coalitions, contradictions, conflicts and problems.

## **KIRISH**

XXI asrning pandemiyadan keyingi xalqaro munosabatlarda albatta tarixiy konfliktlar mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarni belgilovchisi bo'lib qolmoqda. To'g'ri, konfliktlar asosan tarixiy, geomintaqaviy yoki etnik bo'lishi mumkin, lekin biz murojaat qilib turgan pandemiya sikli davridan keyingi tamaddunda konfliktlar onasi bo'lmish din yana mintaqaviy muommodan global muommoga aylanib, diniy ayirmachilik va nizolarning qo'zg'alishi arafasida. Xalqaro munosabatlarda jamiyat va millatlar lobbisi din jipslashuv va bir fikrga kelishda asosiy omil hisoblansa, shunga o'xshash qarama-qarshi uzoqlashishda undanda muhim rol o'ynaydi. Dunyoda millatlarni identikligini amalga oshirib, bir mafkura sifatida jamiyatga birlashtirgan din va uning dinlararo konfliktologiyasi o'ta dolzarb masaladir.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Muqaddam, oldingi yil (2023-yil nazarda tutilmoqda), bir tomonda qardosh xalqlar qir-pichog'ini namoyish qilgan bo'lsa, bir tomondan diniy konfliktning mintaqaviy, eng yomoni bu urush diniy mafkura asosidagi, hudud uchun bo'layotgan arablar va isroilliklar, bundanda yomoni esa islom va yahudiy dinlarining o'rtasidagi hal qilinishi ke

rak bo'lgan urush ekanligi jahon hamjamiyati oldida namoyon bo'ldi. Amerikalik marhum siyosatshunos Samauel Fillips Hantington bekorga g'arb quyoshining botishi avvalombor ma'daniy va diniy inqiroz segmentlari asosida bo'lishi haqida bashorat qilmagan edi.

Bu yil u amalga oshdi. Latviya respublikasida 2023-yil maydagi prezidentlik saylovlarida gomoseksual inson Edgar Rinkevichning prezident bo'lishi yoki shu yilning so'ngi oylarida, tarixda ilk bor Papa bir nikohli jins vakillarini nikohini diniy

jihatdan, to'g'rirog'i katolik aqidalariga binoan diniylashtirishi ya'ni ruxsat berishi Yevropaning shafaqda qizarib turgan quyoshini batamon so'ndirdi. To'g'risini aytsam men tadqiqotda bu haqida yoritishni istamayman. Biroq, dunyoviy hamjamiyat bu kutilmagan voqielikni islomiy fundamentalizimga zid ekanligidan kelib chiqib, kelajakda manqurtlashgan va hattoki din ahlini o'z siyosiy ahkomiga deyarli tortib ketgan, past nazardagi Yevropa bilan islomiy davlatlar munosabatida keskinlik, ziddiyat va qon to'kilishi ro'y berishidan xavotirlanishi kerak.

XXI asr islom olamida inson hayot mazmunini belgilab bergan va uni maqsadlari, hayot ta'rifini ifodalovchi, musulmonlar munosabatida muhim rol o'ynayotgan din mafkura ostida o'z musulmlarini birlashtira oldi. Bizni o'rab turgan olam, insonlar, jamiyatlar, davlat va hukumatlar hamda ularning yo'lchi yulduzi sifatida ko'riluvchi dinlar quladi, o'z atrofida mukammal darajadagi absurd kishilarni yig'di va ayni damda ildamlilik bilan ko'paytirib bormoqda. Ular atrofimizda ko'p, o'zini dunyoga yoshlar mamlakati deb maqtayotgan Hindistonda qariyb 150 million aholisi LGBT vakillari ekanligi aniqlangan, shu jihatdan ularning asosiy qismi yoshlar tashkil etishi ham mintaqaning o'zida an'anaviy va asrlar osha rivojlanib kelayotgan hinduizm va ko'plab mavjud dinlarda insoniy, alloh tomonidan erkakka ayol juft, ayolga esa erkak juft qilib yaratilgan kurrai-zaminda bunday holatlarning kuzatilishi uchunchi yirik dinning ham batamon zulmatga qolganligini dalilidir. Bundan tashqari, Xitoydagi norasmiy manbalarda 300 million aholi besqolbozlik tipida hayot kechirishi ilmiy asos bo'lmoqda. Bu jihat ham asrlar osha Chin mafkurasi sifatida ko'rilgan buddizm va konfutsiylik an'anasining mantiqiy chirik ekanligini ko'rsatadi. Yahudiylar haqida gapirma ham bo'ladi.

Xo'sh, islom olamida bunaqalar yo'qmi? Insoniy urug' bo'lgan Lut qavmi islomga va uning ahkomi musulmonlarga taalluqli emasmi degan ajnabiylar savoli tug'iladi. To'g'ri musulmonlar ichida ham bunaqangilar bor, lekin ayni damda ular islom dini va musulmon jamiyati uchun uyat, orsizlik sanaladi. Aynan shu jihatdan ham butun tarix davomida Sharqdagi unikal din Lut qavmi merosxo'rlariga qarshi jihad e'lon qilgan va bu holat dinni himoyaviy tendensiyasiga aylangan. Shuning uchun ham Islom va uning olami zamonaviy davrda G'arbning inson huquqlaridan



o‘rin olgan hamma barobar konsepsiyasining hammasiga qo‘shila olmaydi. To‘g‘ri bu yerda diniy, etnik, irqiy yoki ayol va erkaklar tengligi jihatlari islomiy mamlakatlarning konstitutsional huquqlariga muvaffaqiyatli qabul qilingan (ba‘zi islomiy davlatlardan tashqari: Eron, Saudiya Arabistoni va h.k) ammo genderning alloh yaratgan erkak va ayol juftidan ortig‘ining ham talab qilinishi barcha islomiy mamlakatlarning axloqiy va ma‘daniy qarashlariga ziddir.

Biz diniy mafkura jihatdan uzlatdamiz. Shuning uchun ham musulmon olami bir paytlar Eron inqilobi asosida to‘rt mingdan olti mingacha gey va lesbian vakillarining omma oldida dorga osilishini haligacha yoqlab kelishadi. Bu islomning siyosiy lashgan qarashlarining diniy prinsipidir. Davlat qonuniy sekulyarizimni amalga oshirishi mumkin, lekin diniy sekulyarizm uning intixosi tomon yetaklaydi.

Samauel Fillips Hantingtonning “nega musulmon olami bunchalar urushqoq, hattoki bir-birlari bilan ham ichki sivilizatsiyaviy urushga bormoqda” degan xitobiga avvalombor Yevropadan buni javobini topishimiz kerak. G‘arb avvalombor “reformatsiya” deb atalgan diniy evrilishdan o‘tgan, undan saboq olgan va g‘arb shunga amin bo‘lgangi diniy nizolar aqidaparastlik, xudkushlik, hattoki diniy fanatizmga olib kelishligini ko‘rgan. Islomchi? Islom halicha bunday jarayondan o‘tgani yo‘q, lekin musulmonlar olamida diniy va dunyoviy davlatlar degan g‘arb siyosiy tuzilmasidagi va islomiy strukturadagi hokimiyatlar mavjudligi uni biz, ko‘z ilg‘amagan holda ham diniy, ham dunyoviy va ulardagi ham jamoaviy, ham milliy islohdan o‘tganini his qilishimiz mumkin. G‘arb refeormatsiyaga kirish davrida va uning mobaynida minglab inkvizitsiya sudlarini va autodafe marosimlarini amalga oshirgan. Undan oddiy xalq ham, olimlar ham va hattoki qirollar ham qochib qutila olmagan. Xo‘sh bu davrda diniy urushlar avval hokimiyatlar uchun, keyinchalik butun g‘arb uchun qaysi sekta kuchli: xalq istagan va isloh qilgan yangi protestanizmmi yoki jannat kalitlari egasi Papa qo‘l ostidagi katoliksiomizm ustunroqmi kabi qabiladagi urushlar butun G‘arbiy Yevropaga tarqalib, alal oqibat 1648-yilda Vestfaliya shartnomasining tuzilishiga sabab bo‘ldi. Xo‘sh, janob g‘arblik siyosatchilar bu davrda kim urushqoq ekan? Keyingi davrdagi ispan taxti uchun, yoki Amerika mustamlakalari uchun boshlangan “yetti yillik urush”,

Napoleonning yurishlari dunyoni bo‘lib olish uchun emasmi? Agar uzoqlashib ketgan bo‘lsak yaqin o‘tmishga qaytib, ikki jahon urushiga boqsak, bu yerda ham yana o‘sha Yevropa.

Yaqin va O‘rta sharqda bo‘lgan siyosiy konfliktlar, avvalambor g‘arbga qarshi diniy ruhda kechdi. Turli millat va elat vakillaridan bo‘lgan, Yevropa tomonidan sun‘iy bo‘lingan mintaqalar mustaqillikdan keyin ichki siyosiy jumhuriyatlar qo‘lida qoldi, bir tomon “u shia”, yana bir tomon “u sunniy” degan asrlar davomida bir nom ostida davlat bo‘lgan xalqlar endilikda milliy manfaatlar ruhida ichki urushlarga kirishishdi. Bu yerda asosiy rolni, kim shia, kim sunniyligida emas, balki hududiy nizolar asosidagi muommolardir. Xo‘sh bu muommolar qancha davr mobaynida bo‘ldi? 60-yillarda boshlangan islomiy evrilish, islomning musulmon mamlakatlari manfaati bo‘la olishligi, balki ayni damda millatlar shu jarayonda ekanligi oydinlashdi. Yangi asrning mobaynida islom mamlakatlarida yo islom, yo davlat (dunyoviylik) prinsipi amalga oshib, mamlakatlar o‘z ichki modelini yaratishdi. Xususan, Iroq dunyo hamjamiyati ko‘z oldida aralash (ham islomiy, ham avtoritar) modeliga barham berib, AQSH istagan model qolibga tusha boshladi, xuddi shunday jarayon Liviyada ham kuzatildi. Saudiya Arabistoni va AQSh manfaatlari dunyo nigohida bir-biriga xizmat qilayotgan bir paytda arabcha model yarim orolda muqim o‘rnini saqlab qolib, mustahkamlandi. Shuningdek, Quvayt, Birlashgan Arab Amirligi, Qatar kabilarni ham shu modelga qo‘shishimiz mumkin. Suriya va Yamanda esa jarayon diniy-fuqorolar urushiga aylanib ketdi va urush o‘nlab yillar cho‘zilib, asl mohiyatini yo‘qotdi. Bir tomondan islomni burchi deb bilgan guruhlar, bir tomondan AQSH, yana bir tomondan Rossiyaning nogohon qo‘shilishi mintaqani paradoks hududga aylantirdi. Turkiyada Islom qayta uyg‘ondi, jamiyat rivojlanishida va qo‘shni mamlakatlar bilan munosabatlarda uning vositasidan foydalana boshladi. AQSH nigohida ayni damda uchta jilovlanmagan Islomiy davlatlar qolmoqda, bular: Eron, Pokiston va Afg‘oniston.

Eron – shohning qulashidan beri amerikaliklar dushmani, Erondagi diniylashib ketgan, xalqqa singib uning qoniga aylangan siyosiylashgan qarashlar amerikaliklar nazdida doim unga nisbatan nafratda ulg‘ayotgan avlodni

yetishtirmoqda, “ularning harbiy qudratga erishish maqsadi bizga nisbatan hujum va terror” deya hayqirayotgan AQSH uchun doim bahona bo‘lib kelgan. AQSH doim Erondan inson huquqlarini buzmaslik, ayollar huquqlarini poymol qilmaslikni talab qiladi, shuningdek, yadroviy qurollar ustida izlanayotgan davridan beri va erishgandan keyin ham forslarni dunyo uchun eng katta xavf sifatida ko‘radi va dunyo hamjamiyatida bot-bot uqtirib keladi.

Pokiston – terroristik hurujning o‘chog‘laridan biri. Mamlakatda AQSHning musulmon davlatlarga qarshi kampaniyasi boshlangandan beri, ilk bora Pokiston tarixida, tashqi dushman sifatida qaraladigan Hindiston bilan ziddiyatli munosabatlar qolib, ichki ziddiyatlar ko‘payib ketdi. Avom xalq ko‘zida islomiy guruhlar va islomiy davlatlarga Pokistonning AQSH bilan qo‘shma harbiy hamkorligi xalqlarning hukumatga ishonchini susaytirdi, natijada yaqin yillargacha Pokistonda terroristik xurujlar avj olib, ko‘plab islomiy tashkilotlarning tuzilishiga olib keldi. Shuningdek, ular Xitoyning mamlakat iqtisodiy zonalariga investetsiya kiritib, qo‘lga olayotganlaridan ham noroziligini yashirmayapti, hattoki ushbu guruhlar orasida qardosh bo‘lgan xalqlarga genotsidlar uyushtiralayotgani ham ularning Pokiston ichida alohida muhtor Respublika yoki mustaqil islomiy davlat tuzilishi uchun kurashlarga sabab bo‘lmoqda. Shu o‘rinda, Pokiston Musulmon davlatlari ichidagi oz sonli islomiy davlatlardan bo‘lsada, hali ham shariat qoidalarini mamlakatning rasmiy qonuni bo‘lganicha yo‘q, xalqi esa shunday bo‘lishini istashmoqda, shuning uchun ham xalq ushbu islomiy hukumatdan qoniqmayapti, rishtalar uzviyligi yo‘q, go‘yoki javob ham topilganday, xalq ko‘zida Eron muvaffaqiyatli Islomiy respublika bo‘lib ko‘rinmoqda yoki Afg‘onistonda Tolibonning hokimiyatni qo‘lga olishi, avval NATO harbiy bazasini mamlakatdan chiqib ketishiga, undan keyin Ashraf G‘ani prezidentligining ag‘darilishiga olib kelgani ham islomiy guruhlarining muvaffaqiyatini isbotlamoqda. Shu va shunga o‘xshash siyosiy jarayonlar tez orada Pokistonda ham davlat to‘ntarishi yoki fuqorolar urushiga dujor bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

Afg‘oniston – yosh islomiy mamlakat. Uzoq yillik fuqorolar urushi, Sobiq Ittifoqqa qarshi ozodlik urushlari, Sovuq urushdan keyingi anarxistik hukumat,



Sentabr voqealaridan keyingi AQSH koalitsiyasiga qarshi Toliblar kurashi, islomiy davlat va shariiy qonunlar uchun urushing vaqtincha magʻlubiyati va Afgʻoniston Islom Respublikasining tashkil etilishi bilan yakun topdi. AQSH siyosiy elitasining noroziligi, milliardlab dollarning Afgʻonistondagi harbiy bazaga hech qanday maʼnosiz va natijasiz sarflanishi, shuningdek, AQSH qoʻshinlarining koʻplab oʻlimlari, eng asosiysi esa Tolibon qarshiligini sindira olmaganligi va amaldagi hukumatning xalq ishonchini qozona olmaganligi amerikaliklarning Afgʻonistonni oʻz holiga tashlab ketishiga sabab boʻldi. Shunday qilib NATO (amalda AQSH) 2021-yil 1-mayidagi butunlay mamlakatdan chiqib ketgandan soʻng, mamlakatda islomiy demokratiya (hukumat) va islomiy Tolibon (siyosiy islomiy-harakat) oʻrtasida urush boshlandi, natijada shu yilning butun yozi va sentabr oyining boshiga qadar davom etgan urushlar natijasida mamlakatning katta qismi Tolibon qoʻliga oʻtdi. Inson huquqlarining eng past darajasi, dunyoning narko-beznis oʻchogʻi sifatida koʻrilsada, mamlakat 2023-yil natijalariga koʻra jadal iqtisodiy oʻsishga erishdi. Tashqi siyosatda mamlakatning Eron bilan munosabatlari yomon, hattoki Eron-Afgʻon chegarasidagi yuz bergan 2023-yilgi otishmalar ham, qoʻshnilar bilan taranglikka olib kelmoqda, Pokiston bilan munosabatlarda ham Eron bilan boʻlgani kabi muommolar kuzatilmoqda, hududiy nizolar mavjud, chegaralar berk, Tolibonning oʻzi singari ikki islomiy hukumat bilan murosaga kelaolmayotganligi esa tushunarsiz. Mamlakat iqtisodiy oʻsishida Xitoy bilan munosabatlar rivojlanayotganligi koʻzatildi, Xitoy iqtisodiy koʻmagi mamlakat rivoji uchun, Tolibonning xalqni ishonchini qozonishiga yordam bermoqda ammo kelajakda iqtisodiy qaramlikka tushib qolish xavfi mavjudligi dunyo iqtisodchi olimlarinig ogohlantirishiga sabab boʻlmoqda. Post-sovet davlatlari Oʻzbekiston va Turkmaniston dunyo hamjamiyatida Afgʻoniston bilan muzokaralarga oʻrnak boʻla olayotgan boʻlsada, lekin Afgʻonistonning 2021-yilda mamlakatda ikkinchi rasmiy til hisoblangan oʻzbek tilining qonuniy olib tashlanishi oʻzbek-tolibon munosabatlarining belgilab olinishining kichik debochasi boʻldi, boz ustiga 2023-yil yoz oyida boshlangan Qoʻshitepa kanali qurilishi va kanalning oʻz faoliyatini boshlashi Tolibonning Oʻzbekiston va Turkmaniston bilan munosabatlariga salbiy

ta'sir etmoqda. Jahon ekspertlari bu global muommoga aylanishi, yaqin kelajakda esa mamlakatlar o'rtasidagi "suv urushi"ga aylanib ketishini bashorat qilishmoqda. Toliblarning Tojikiston bilan ham munosabatlari yaxshi emas, bunga sabab Tolibonning Tojikiston islomiy harakatning qo'llab-quvvatlashi ikki mamlakat o'rtasida keskin taranglikka sabab bo'lmoqda. Lekin, Markaziy Osiyo davlatlari Tolibon bilan siyosiy-iqtisodiy sherik bo'lishni xohlashadi. Shu maqsadda ham mamlakatlar o'rtasida ma'daniy-ijtimoiy sheriklik kuzatilmoqda. 2023-yil, dekabrda Qozog'iston Respublikasi prezidenti Qosim Jo'mart To'qayevning Tolibon harakatini mamlakatning xavfli va terroristik tashkilotlar ro'yhatidan chiqarishi, keyingi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari va Afg'oniston munosabatlarida ijobiy burilish yasashi kutilmoqda.

Islomiy mafkura musulmon olamining siyosiy belgisidir. AQSHning Yaqin va O'rta Sharqdagi islomiy fundamentalistlarga qarshi kurashi vaqtinchaligi oydinlashib bormoqda, bu esa AQSHga qarshi siyosiy harakatlarning tashkil etilishida, islomiy guruhlarining g'arbga qarshi jehod e'lon qilinishida kuzatilmoqda. Yaqin kelajakda AQSH Yaqin Sharqdagi 60 ga yaqin harbiy bazalarini kamaytirishni rejalashtirayotganligi yoki harbiy bazalar sabab mamlakatlar o'rtasida nifoq solayotganligi ham ushbu mintaqa mamlakatlari bilan munosabatlarni qayta ko'rib chiqishini anglatmoqda.

Post-Sovet davlatlari mustaqillikdan keyin, sharq mamlakatlarida boshlangan siyosiy o'zgarishlar (kommunizmni mustahkamlashga urinishlar, kapitalizmga o'tish, mamlakat iqbolini islom bilan ko'rish va h.k) ularning keyingi hokimiyat tuzulish prinsipini belgilab berdi. Markaziy Osiyo musulmon mamlakatlarining ichki qismida boshlangan siyosiy uyg'onishga islomiy fikrlash qo'shildi. Natijada mamlakatda davlat va hokimiyat tuzulishi to'g'risida maqbul va nomaqbul qarashlar yuzaga keldi. Tojikistonda 1992-yilda boshlangan hukumat va islomiy davlat tarafdorlari o'rtasidagi kurash fuqorolar urushiga aylandi. Buni kuzatib turgan qo'shni respublikalar mamlakat birligi uchun islom mafkurasi ziyon keltirishini anglashdi. Ularning hammasi g'arb modelidagi Respublika tizimini o'rnatishdi.



Kommunizm mafkurasidagi postsovet davlatlarda din uzoq yillik mavhum tizim sifatida ko‘rildi, kommunizm fuqorolarining diniy bilimsizligi, o‘z vaqtida “din afyundir” kabi qarashlar bilan ulg‘aygan siyosiy elita mustaqillikdan keyingi islomiy qarshlarga siyosiy jihatdan bo‘hron sifatida qarashdi. O‘zlari qurayotgan siyosiy tizim uchun dinni ortiqcha deb bilishdi, to‘g‘ri, ular mustaqil mamlakat rahbarlari sifatida Makkayu-Mukkaramani ziyorat qilishdi, mamlakat islomiy qarashlar jonlanishiga rahnamolik qilishdi, biroq ulardagi ulg‘aygan siyosiy qarash dinni hokimiyatdan ajratish konsepsiyasini yo‘qotmadi. Islomiy uyg‘onish ro‘y berayotgan davrda Markaziy Osiyo xalqlarida islom ularning hayot-mazmuniga taskin va orom bergandek tuyildi. Ularning bir kami to‘lgandek bo‘ldi lekin ular bundanda ziyodini istashdi. Yoshlar orasida diniy bilimlar beruvchi mullalar ko‘paydi, ularni zaharlash boshlandi, jihad e‘lon qilib islomiy davlat qurish rejalari paydo bo‘la boshladi. Ular bu yo‘ldan o‘limdan ham taptortmaydigan zombilarga aylanishdi. Yangi davrning birinchi o‘n yilligi, O‘zbekistondagi fevral voqealari, o‘zbek-afg‘on chegarasidagi terroristik hurujlar, Andijon voqealari, Tojikistondagi islomiy harakatlar, qo‘shni respublikalardagi ekstremistik teraktlar ularda ma‘lum muddat islomni “cheklash” choralariga chaqirdi. Islomga qarshi kurash olib borishdi. Biroq ular dinni butunlay cheklab qo‘ya olishmadi, buning iloji ham yo‘q edi. Keyingi dekadada xalq taskin topgan vositani – islomni yana jonlantira boshlashdi, ko‘plab amaliy ishlar qilishdi. Hozirda barcha Markaziy Osiyo respublikalarida jumaga qatnaydigan musulmonlarni, ko‘chada, ta‘limda, davlat ishlarida hijob o‘ragan xotin-qizlarning ko‘p uchratasiz. Diniy kutubxonalar mavjudligini ko‘rasiz. Post-sovet mamlakatlari rahbarlarining esa musulmon olami mamlakatlari bilan munosabatlari islom mafkurasi ostida birlashayotganini kuzatasiz.

Islom birlashishi muqarrar ekan, G‘arbning bunga to‘sqinlik qila olishining imkoni yo‘qligi aniq. Lekin shu o‘rinda takidlashimiz kerakki, islom va g‘arbning chiqishmasligi muttasil islomning ichki ishlariga aralashaverishidan ham emas, uning axloqiy buzilib borayotganligi, islomga zid narsalarni o‘ziga moslashtirayotganligi musulmonlarni asabini buzmoqda. Boshqa tomondan Xitoy

bilan uyg'ur musulmonlarinig "tarbiyaviy lagerlarda" saqlanishiga hamda ularga etnik-diniy genotsid qilinayotganligi bir vaqtda musulmonlarning jim turishi insonni ajablantiradi. Bu yerda qanday: siyosiy? iqtisodiy? masala borligi aniq oydin emas, lekin ulardagi G'arbga nisbatan nafrat kayfiyati borligi musulmonlarning ko'z yumayotganligini anglatmoqda. Shuningdek, Xitoy musulmonlarning ichki ishlariga aralashmasligi uchun G'arbga qarshi doim ularning tarafini olib kelayotganligi ham ikki tomonning manfaatlari bir tizimda ekanligini ko'rsatmoqda.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, musulmon olami yangi davrning yarmiga qadar g'arbga qarshi siyosiy-aggressiv kuch bo'lib yetilishi kutilmoqda. Avvalombor diniy qarashlar, madaniyatlar to'g'ri kelmasligi, etnik-tarixiy ziddiyatlar, asrlar osha qolib ketgan hududiy nizolar, manfaatlar g'arb va sharqning tinchlik deb atalmish ulug'vor va insoniy kelishuvga kirishishi uddalab bo'lmas topshiriqday tuyulmoqda. Boz ustiga, Rossiya va Xitoy deb atalmish qudratli o'chog'larning G'arb mafkurasiga qarshi sharqqa birdamlik e'lon qilishi nizolarni kuchaytirmoqda. Shuningdek, Hindiston va uning atrofidagi "uchunchi dunyo" mamlakatlarning sharq bilan ijobiy va manfaatli munosabalari, G'arbdan iqtisodiy va siyosiy qaramlikdan qochish Sharq deb atalmish koalitsiya manfaatlariga xizmat qilmoqda. Dunyo urush uchqunlari girdobida, uning alanga olishi esa siyosiy liderlar qo'lida qoldi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. "Sivilizatsiyalar To'qnashuvi va yangi dunyo tartibi", muallif S.F.Hantington, 1996-yil
2. <https://www.wikipedia.org/>
3. <https://www.ziyouz.com/>